

KICHIK MAKTAB YOSHI DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Akbaraliyeva Asilaxon Tajjidinovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti

“Psixologiya” kafedrasи o‘qituvchisi

Maxkamova Munida Qaxramonovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti pedagogika

Fakulteti Psixologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarni harakter xususiyatlarini, shu davrda kechadigan o‘zgarishlarni, bu davrda bola bilan qanday munosabat qilish, kichik maktab yoshidagi bolalar bilan qanday munosabat o‘rnatish, bu davrda bolada yetakchi faoliyat nima ekanligi, To‘liqsizlik kompleksi nima va bu bolada qanday kechadi, bolada to‘liqsizlik ko‘mpleksi bo‘lmasligi uchun nima qilish lozim. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqillik poydevori yuzaga kelishi, aynan shu davrdan boshlab bola o‘zini mustaqil his qila boshlashi, chunki bu davrda bola matabga qadam qo‘yishi, Separatsiya tushunchasi, bolada xulq-atvor meyorlari shakillanishi, kichik maktab yoshi davrida bilish jarayonlari rivojlanishi, va olimlarni fikrlari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Kichik maktab yosh davri, separatsiya, to‘liqsizlik kompleksi, xotira, tafakkur, idrok, diqqat rivojlanishi, refleksiya, kompitentlik

Kirish. Bugungi kunda kichik maktab yoshidagi bolalarga Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Bir qancha yangi qarorlar, farmoyishlar qabul qilinmoqda. PQ-79-sonli qarorda shunday deb yozilgan -“Umumiy va o‘rta ta’lim muassasalarining 1-4 sinflarida o‘quvchilariga boshlang‘ich ta’lim berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturi va o‘quv-metodik majmualar joriy etiladi; barcha fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60% ga yetkaziladi. O‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari va o‘quv metodik majmualar joriy etiladi”.[1]

Kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda bolada ko‘pgina o‘zgarishlar ro‘y beradi. Misol uchun bolani matabga chiqishi, yangi muhit bilan yangi olam bilan tanishishi, yangi kun tartibiga moslashishi, o‘quv faoliyati ko‘nikmalar shakillanishi, o‘z o‘zini boshqarishi maktabda do‘sstar orttirishi hisoblanadi.

Bu davrda bolada refleksiya paydo bo‘ladi. Bola o‘z xatti-xarakatlariga tashqaridan baho bera boshlaydi. Bola o‘z xulq-atvorini boshqara boshlaydi.

Uyda o‘zini qanday tutishni, ko‘chada qanday tutishni farqlay boshlaydi. Bola haqiqiy sotsiumga kiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy normalar bilan sekin asta tanisha

boshlaydi. Bilish jarayonlari diqqat, xotira, tafakkur, nutq va oliv hislar shakillana boshlaydi (estetik ma’naviy-axloqiy o‘rtoqlik hamdardlik, adolatsizlikka chiday olmaslik).

Kichik maktab yoshi davrida bola shaxsining shakillanishi batamom tugallanmagan bo‘ladi, ya’ni shakillanishda davom etayotgan bo‘ladi. O‘quvchining maktabdagi muvafaqqiyati, ota-onaning bolaga e’tibori maktabdagi o‘qituvchining bola bilan individual shug‘ullanishi, bola shaxsini shakillanishida juda muhimdir.

Bu davrda yetakchi faoliyat o‘qish faoliyati hisoblanadi. Bola maktab darsliklariga sekin asta moslashadi, ilk maktabga chiqqanda bolada eng katta muammo darsda 45 daqiqa qimirlamasdan o‘tirish va kundalik darslarni o‘z vaqtida tayyorlash bo‘ladi. Bu darslarni tayyorlashda bolada mas’uliyat paydo bo‘ladi. Bu davrda bolada mustaqillik poydevori yuzaga kelib, darsliklarni mustaqil bajarish istagi paydo bo‘ladi.

D.A.Soliyevaning “Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar o‘quv mustaqilligini rivojlantirishning psixologik jihatlari” nomli avtoreferatida shunday degan - “Mustaqilikka moyillikning yuzaga kelishi 2 yo‘nalishda amalga oshadi. 1-Mustaqillikning shaxs xislati sifatida vujudga kelishi ijtimoiy muhitga bogliq. 2-Mustaqillikning shaxs xislati sifatida shakillanishida individual xususiyatlar, shaxs yashaydigan va mehnat qiladigan jamoada vujudga kelgan munosabatlarga hamda shaxsning qobiliyatlariga, uning faolliligiga bog’liq bo‘ladi.”[2]

Bu davrda bolalar emotsional ekanligini hisobga olsak, bolani kamsitish, tengdoshlariga solishtirish, bolada to‘liqsizlik kompleksi rivojlanishiga olib kelishi yoki o‘ziga nisbatan ishonchi past bo‘lishiga olib keladi.

Bu haqida Avstryalik psixolog Alfred Adler shunday degan - “Har bir insonda bolalikdan boshlab o‘zini to‘liq ojiz yoki boshqalardan kamroq his qilish holati bo‘ladi”[3]. Agarda ota-onan farzandini ko‘p tengdoshlariga solishtirsa shu kompleks rivojlanishiga sababchi bo‘ladi. Yoki bo‘lmasam “ichki meni” yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Chunki bu davrda asosan maktabda yangi darsliklarni o‘zlashtirish eng muhim ish hisoblanadi. Lekin hamma bolalar ham bu darsliklarni tezlik bilan o‘zlashtira olmaydi. Xamma bolada aqliy rivojlanish har xil suratlarda kechadi.

Har bir bola individual bir biriga o‘xshamaydi. Uning qiziqishlari, qibiliyatlar, empatiya darajasi, refleksiyasi, atrof bilan komunikatsiyaga kirishishi, intelekti o‘ziga xosdir. Z.Klicheva kichik maktab yoshi davridagi munosabatlar haqida shunday degan - “Kichik maktab yoshi davrida bolani boshqa insonlar bilan munosabatida katta o‘zgarishlar yuz beradi. Bolani muloqoti endi aniq maqsadga qaratilgan bo‘ladi. Bunga sabab bir tomondan o‘qituvchining doimiy ravishda unga ko‘rsatadigan faol ta’siri bo‘lsa, ikkinchi tomondan o‘quv jamoasining ko‘rsatadigan ta’siridir.[4]

Chunki o‘qituvchi bolaga ota-onaga nisbatan ko‘proq talab qo‘yadi. Bolani oilasi va tevarak atrofdagi odamlar bilan ham muloqotda katta o‘zgarishlar bo‘ladi. Atrofdagilar bilan munosabatda esa bola o‘z “meni”ni namoyish etishga harakat qiladi.

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, "Faqat jamoaviy hayot ichida va ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bolani individual xulq-atvori shakillanadi" [5]. Bu so'zning zamirida bolani xulq-atvori shakillanishida jamiyatning o'rni atrofidagilarning o'rni juda katta ahamiyat kasb etadi. Ota-onaning roli esa bunda beqiyosdir. Chunki farzandlar shaxsiy namuna orqali tarbiya qilinadi. Bola o'z uyida ko'rgan xulq-atvor modelini o'zida shakillantiradi.

Kichik mакtab yoshi davrida eng muhim davri bu 1-sinf hisoblanadi. M.G.Davletshin rahbarligida M.A.Maqsudova tomonidan "Birinchi sinf o'quvchilarida ta'lim jarayonida bilishga oid qiziqishlarning o'sishi" [6] mavzusida tadqiqot olib borilgan. Bu tadqiqotda o'quv yilining boshida o'quvchilar o'z qiziqishlarini "yoqadi" "yaxshi ko'raman" degan javoblar bilan namoyon qilsa, yilning oxirida esa bolalar o'zлari uchun yangi bo'lган faoliyat turlari konstruktorlik va mehnat turlari bilan qiziqa boshlaydi.

Bu davrda bilish jarayonlari hisoblangan diqqat, xotira, tafakkur, nutq ham jadal rivojlanadi. Avval bolada ixtiyorsiz diqqat namoyon bo'ladi. Bola o'z diqqatini biron jihatni bilan rang barangligi, harakatchanligi bilan ajralib turuvchi narsaga qaratadi. Ixtiyorsiz diqqat o'qish darsligini o'zlashtirishni yengillashtiradi. Bolani unchalik toliqtirmaydi. Bunda darslik yengil, juda puxta o'zlashtiriladi. Shuning uchun o'qish jarayonida o'quvchilarning ixtiyorsiz diqqatida munkin qadar foydalanish lozim. Buning uchun dars materiallari ko'rgazmali jonli bo'lishi ixtiyorsiz diqqatni saqlab turishga yordam beradi. Lekin o'qish jarayonining hammasi ham ixtiyorsiz diqqat asosida olib borilishi yaramaydi. K.D.Ushinskiy shunday deydi "Biroq passiv diqqatning bir o'zi kifoya qilmaydi, hatto uning juda erta va haddan tashqari tez faol diqqatning yordamisiz o'sishi rux kuchsizlanib, yalqovlanib, hamisha qiziq-qiziq hikoyalari yoki qiziq kitoblar bilan ta'sirlanib turishini talab qiladigan bo'lib qoladi" deydi [7]. Bu degani bola faqat ko'rgazmali jonli qiziqarli dasliklarni yaxshi o'zlashtiradi, ammo ko'rgazma quroli yo'q darsliklarni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diradi demoqchi bo'lган. Kichik mакtab yoshi davrida xayol qilish, asosan, o'qitishning ta'siri ostida yana o'sa boradi.

Darsda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlar musiqa, loy va plastilindan har xil buyumlar yasash, badiiy adabiyot, o'qish, hayolni o'sishida katta ahamiyatga ega.

Mакtab yoshidagi bolada ixtiyorsiz hayol ham, ixtiyoriy hayol ham borgan sari barqaror bo'lib boraveradi. Hayolni tug'diradigan qiziqish yoki ideyalar mavjud bo'lгanda ixtiyorsiz hayol barqaror bo'ladi. Bunda ixtiyorsiz hayol yangi materialni tushunish va o'zlashtirishda, urli masalalarni hal qilishda, insholar yozishda, surat chizishdava shu kabi mashg'ulotlarda katta rol o'ynaydi.

Kichik mакtab yoshi davrida idrokning hamma turlari, asosan, ta'lim va tarbiya tufayli mazmun, aniqlik, ravshanlik jihatdan takomillashadi. Ta'lim va tarbiya jarayonida bolalarda ixtiyoriy idrok va kuzata bilish qobiliyati o'sadi. Bolada kuzata

bilish qobilyati ularning tafakkuri, irodasi, qiziqish – havaslari bilan birgalikda o’sadi. Bu davrda vaqtini tez idrok qilish, ko‘z bilan chandalash, narsalarning katta kichikligini ajrata bilish qobilyati yanada yaxshiroq o‘sishiga jismoniy tarbiya, chizmachilik, rasm, geometriya darslari bilan shug‘ullanish katta yordam beradi.

Xulosa: Kichik maktab yosh davri bolani kelajakka qo‘yadigan ilk qadamlaridan biridir. Bu davr bola hayotida biroz qiyinchilik tug’dirishi mumkin lekin bu davr o‘smirlilik va o‘spirinlik davriga o‘tishdagi ko‘prik vazifasini o‘taydi.

Bu davrda bolani rivojlangan harakter xususiyatlari, atrof haqidagi fikri, jamoa bilan munosabati, o‘zini tutishi, o‘smirlilik davriga ta’sir qilmasdan qolmaydi.

Ya’ni bu davr keyingi davrga poydevor vazifasini o‘taydi. Bu davrda bola o‘zini anglaydi. Tashqaridan o‘z xatti-harakatlariga baho berishni boshlaydi. Bu davrda ular juda emotsional bo‘lganligi sababli qattiq ohangda gapirish, urushib koyib berish bolani psixikasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘ziga nisbatan ishonchi past bo‘lishiga olib keladi. Ota-onalar farzandlarini qo‘llab quvvatlashi, ijobjiy rag’batlantirishi muhim hisoblanadi. O‘qituvchisi ular uchun ota-onadan keyingi asosiy odamga aylanadi. O‘qituvchi bola bilan ijobjiy munosabat o‘rnatishi bolani mактabga moslashishida asosiy omil hisoblanadi. Bu davrda bolada qo‘zg’alish kuchli ekanligini hisobga olgan holda munosabat qurish lozimdir. Bu davrda bilish jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Eng asosiysi bu diqqat hisoblanib usiz boshqa qobilyatlar rivojvana olmaydi, agar o‘qitishda yuqori natijaga erishmoqchi bo‘lsak diqqatni bo‘linmasligiga erishish juda muximdir. Bola diqqatini bir nuqtaga to‘plamas ekan unga tushuntirilgan barcha darsliklar bekor ketadi.

Intelektning rivojlanishida o‘qituvchi darslarni qay tarzda tashkil qilgani, uyda ota-ona bola bilan qanday shug‘ullanganida namoyon bo‘ladi. Bolada idrok bu davrda kuchli rivojlanmaganligi sababli, biron predmetni mustaqil tahlil qila olmaydi, ularning idroki predmetni shakli rangi katta-kichikligini anglash bilan chegaralanganligi tufayli, bu predmetning xususiyatlarini chuqur anglamaydi. Bu davr bolaning psixik taraqqiyotida muhim davr hisoblanib bu davrni bola qiyinchiliklarsiz, stresslarsiz bosib o‘tishida maktab va oilaning o‘rni beqiyos.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.11.05.2022-yildagi PQ-79.
2. Soliyeva D.A. Kichik mактab yoshidagi o‘quvchilar o‘quv mustaqilligining rivojlantirishning psixologik jihatlari.Ps.f.n.....avtoref-T 2012-24 b.
3. A Adler “Induvidual psixologiya”
4. Клычева З.П.Общение в учебно-воспитательном процесс как фактор формирования личности учащихся начальных классов. –Т. Автореф. Пс.н 2005.-23 с
5. Viygotskiy L.S., “Pedagogik psixologiya” 1926

6. Махсудова М.А Развитие познавательных интересов учащихся первых классов в процессе обучения. Автореф..... нс. – Т. 1993. -17 с.
7. K .D Ushinskiy “Bolalar dunyosi va xrestomatiya”1861
8. Zamira Nishanovna “ Rivojlanish va pedagogik psixologiya “
9. P.I.Ivanov “Umumiyl psixologiya”

